

O‘ZBEKISTONDA DOSTONCHILIK SAN’ATINING YIRIK NAMOYONDALARI – BAXSHILAR HAQIDA

Mahmudov Jahongir Saminjon o‘g‘li

Namangan davlat universiteti Musiqa ta’limi va madaniyat fakulteti

Vokal san’ati 3 - bosqich talabasi

Jahongirmahmudov1997@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o‘zbekistonda dostonchilik san’atining yirik namoyondalari – baxshilar haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: doston, musiqa, ohang, san’at, baxshi, ijro, mahorat, qobiliyat, musiqa asbob, kuy, san’at tarixi.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассказывается об основных проявлениях эпического искусства Узбекистана – бахши.

Ключевые слова: эпос, музыка, мелодия, искусство, дар, исполнение, мастерство, умение, музыкальный инструмент, мелодия, история искусства.

ABSTRACT

This article talks about the major manifestations of the epic art in Uzbekistan - bakhshis.

Key words: epic, music, melody, art, gift, performance, skill, ability, musical instrument, melody, history of art.

Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li 1872-yil, Jizzax viloyati Baxmal tumani Loyqa qishlog‘ida tavallud topgan bo‘lib, — o‘zbek xalq shoiri, baxshisi hisoblanadi. Yo‘ldosh Mulla Javohir o‘g‘lining shogirdi. Bulungur dostonchilik maktabining eng yirik va so‘nggi vakili. Yetimlikda o‘sgan. Cho‘ponlik qilgan. Dostonchilikka havasi erta uyg‘ongan. Yoshligida do‘mbira chertishni, terma aytishni mashq qilgan. 20 yoshlarida ustoz Yo‘ldosh shoirdan dostonchilik sirlarini o‘rgangan. Yosh baxshi xalq o‘rtasida ustoz uyushtirgan sinovdan muvaffaqiyatli o‘tib, 25 — 26 yoshlarida yetuk dostonchi sifatida tanilgan. F.Y.o‘. Amin shoir, Chini shoir, Tovbuzar shoir, Qurbonbek shoir, Sultonmurod shoir, Yo‘ldoshbulbul, Yo‘ldosh shoir, Ko‘ldosh, Suyar kabi Bulung‘ur dostonchilik maktabining peshqadam dostonchilaridan adabiy an’anani qabul qilib olgan, uni puxta egallab, kjeak badihago‘ylik bilan boyitgan va o‘zbek dostonchiligini

yangi bosqichga ko'targan. Fozil Yo'ldosh repertuari mavzu va janr jihatidan boy va rangbarang. U 40 dan ortiq xalq dostonlarini yod bilgan va yuksak mahorat bilan kuylagan. Undan "Alpomish", "Yodgor", "Yusuf bilan Ahmad", "Murodxon", "Rustamxon", "Shirin bilan Shakar", "Go'ro'g'lining tug'ilishi", "Avazxonning o'limga hukm etilishi", "Malika ayyor", "Mashriqo", "Zulfizar", "Balogardon", "Intizor", "Nurali", "Jahongir", "Zevaxxon", "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Baxrom va Gulandom", "Oshiq G'arib" kabi 30 ga yaqin doston yozib olingan. Shoir qaxramonlik, romanik, tarixiy dostonlar hamda kitobiy dostonlarning eng yaxshi namunalarini kuylab kelgan. "Alpomish" dostoni uning ijodida alohida o'rin tutadi. Bu dostonning o'zbek xalq dostonchilaridan yozib olingan 40 ga yaqin variantlari orasida F.Y.o'. varianti eng mukammali va badiiy jihatdan barkamoli hisoblanadi. Unda shoirning yuksak dostonchilik mahorati to'la namoyon bo'lgan. F.Y.o'. zamonaviy mavzularda xam qator doston va termalar yaratgan. Uning "Mamatkarim polvon", "Jizzax qo'zg'oloni", "Kunlarim" kabi dostonlari, "Jangchi o'g'limga", "Elat botir", "Ota nasihati", "Qurollanint", "Er yigitlar, maydonga!", "Jahon tinglagay", "Bolalarimga", "Pushkinga" kabi termalari shular jumlasidandir. Baxshi kuylagan xalq dostonlari Ergash Jumanbulbul o'g'li, Islom shoir, Po'ikan, Abdulla shoir kabilar repertuari va original asarlari bilan birgalikda o'zbek dostonchiligi va adabiyotiga qo'shilgan katta hissa bo'ldi. Shoir merosi keng o'rganilmoqda. Shoir dafn etilgan Bulung'ur shahrida muzey tashkil etilgan va unga haykal o'rnatilgan. U 1955-yil avtohalokat tufayli vafot etgan.

Yorlaqab baxshi Beknazar o'g'li— 1888 —yil Zomin tumanida tavallud topgan bo'lib, — o'zbek dostonchisi. Dastlab Karapchi qishlog'ilik Omon baxshiga, so'ngra So'loq qishlog'ilik Xudoynazar shoirga shogird tushib, mohir dostonchi sifatida tanilgan. 1917—32 yillarda Farg'ona vodiysining tuman va qishloqlarida, Kirg'izistonning O'sh viloyatida dostonchilik bilan shug'ullangan. 1932-yil Zominga qaytgan. Ikkinchi jahon urushi yillarida yaratgan termalarida o'zbek jangchilarining qaxramonligini madh etgan. "Bekobod", "Farhod qurilishi" kabi termalarida ulkan qurilishlar, o'zbek xalqining ulug' yaratuvchilik mehnatini aks ettirgan. "Go'ro'g'lining tug'ilishi", "Intizor", "Hasanxon", "Murodxon", "Shirin bilan Shakar" kabi xalq dostonlarini mahorat bilan kuylagan. Yo. b.dan bir qancha an'anaviy va zamonaviy termalar, "Alpomish", "Malikai ayyor", "Choryor" dostonlari yozib olingan.[1]

Ergash Jumanbulbul o'g'li 1868yilda hozirgi Samarqand viloyati Qo'shrabot tumani Qo'rg'on qishlog'ida tavallud topgan — o'zbek xalq baxshisi, Qo'rg'on dostonchilik maktabining eng yirik vakili hisoblanadi. Dehqondostonchi oilasida tug'ilgan. Uning yetti otabobosigacha, shuningdek, amaki va momolari dostonchi shoir o'tgan (Yodgor, Lafas, Mulla Tosh, Mulla Xolmurod, Jumanbulbul, Tilla kampir,

Sulton kampir, Jossoq, Yorlaqab va boshqalar 17—19-asrlarning taniqli dostonchilari bo'lganlar). E.J.o'.ning ulkan shoirdostonchi bo'lib yetishuvida oilasi va qishlog'idagi (qarang Qo'rg'on dostonchilik maktabi) boy adabiy muhit katta rol o'ynagan.

Dostonchilik ta'limini otasi Jumanbulbuldan olgan. Asli savodsiz bo'lgan Jumanbulbul o'z o'g'li Ergashning o'qisho'rganishi, bilim olishiga katta e'tibor bergan. 1884—86 yillarda Buxoro madrasalaridan birida o'qib, fors tilini o'rgangan, arab tili bilan tanishgan, husnixat mashq qilgan. Navoiy, Fizuliy, Hofiz, Bedil, Mashrab, Mahtumquli asarlarini mutolaa etgan. Biroq moddiy qiyinchilik va otasining vafoti (1886) tufayli o'qishni davom ettira olmagan. Qishlog'iga qaytib, mustaqil o'qish, dostonchilikda mahoratini oshirish bilan shug'ullangan, ma'lum muddat maktab ustози va qaynotasi O'tamurod xatibning yordami bilan dehqonlardan kafsan yig'uvchi bo'lgan. 1887—89 yillarda E.J.o'. Buxoro amirligiga qarashli Nurota bekligining amlokдорlaridan biri Qo'zibekka mirza (kotib) bo'lib ishlagan. O'lkada boshlangan qahatchilik, chigirtka va vabo tarqalishi natijasida shoirning yaxshigina dostonchi bo'lib yetishayotgan ukalari Abduxalil va Abdujalillar, singillari va farzandlari birin-ketin vafot etadi. Bunday g'amalam, tashvishda qolgan shoir kuylashni ham tashlab, taxminan 1904—05 yillardan darbadarlikda hayot kechirgan. 1912—22 yillarda Bulung'ur, G'allaorol, Urgut tumanlari, Jizzax va Panjakent atrofidagi qishloqlarda tabiblik, qissaxonlik, she'rxonlik qilib yurgan, ba'zan dostonlar kuylagan. 1923-yilda qishlog'iga qaytgan. 1924-yil Qorakisa qishlog'ida bir xonali maktab ochgan. Ergash J.o'. an'anaviy doston va termalarni kuylab kelish bilan birga o'zi ham barakali shkod qilgan. Uning "Tarjimai hol" dostoni, "Keldim", "Toshkent ta'rifida", "Qizil", "Tursunoy", "Oxunboboyev", "G'ozim Olim", "Otajon Hoshim", "Shoirlarga rahbar Hodi", "Eshon", "Asov qizlar", "Bir hafta xo'p bo'dsi yog'in" kabi termalari e'tiborga molik.[2]

Ergash Jumambulbul o'g'lining ijodi, repertuari boy va rangbarang. Shoir "Kuntug'mish", "Yakka Ahmad", "Alibek bilan Bolibek", "Dalli", "Ravshan", "Qunduz bilan Yulduz", "Xushkeldi", "Xoldorxon", "Qiz Jibek", "Go'ro'g'lining tug'ilishi", "Hasanxon", "Avazxon", "Avazning Farangga safari", "Nurali", "Xiromon" ("Jahongir"), "Alpomish", "Yusuf bilan Ahmad", "Tulumbiy", "Qironxon", "Qumri", "Oshiq G'arib", "Vomiq bilan Uzro", "Varqa bilan Gulshoh", "Mahtumquli" kabi 30 ga yaqin dostonlarni, juda ko'p termalarni yod bilgan. Bulardan dastlabki 9 ta doston, "Oysuluv" dostonining mazmuni, ko'pgina an'anaviy va zamonaviy termalar, o'zidan avval o'tgan baxshilar va dostonchilik san'ati haqida ma'lumotlarni o'zidan yozib olingan. U xalq dostonlarining barcha janrlaridan namunalar bilgan. Dostonlarning g'oyaviyligi, xalqchilligi, badiiy go'zalligi uchun kurashgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.“O‘zek dostonchilik tarixi”Salomov.D.Toshkent-2015.B-218.
- 2.“Musiqqa tarixi”Kamolova.G.Toshkent-2001.B-147.